

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№10

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 617 sahifa.

2025-yil, 15-oktyabr

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	13
Muxiddin Kalonov	
MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	24
Sabirova Oysuluv Shonazarovna	
KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI	30
Musayeva Shoirazimovna	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKTSIONAL JIHATI.....	35
Alabayev Sobitxon	
MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI.....	40
Zakirov Ansaxon Akaidinovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	48
Саидахмедова Аида Мирзаевна	
KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH	55
Mirzayev Ozod Furkatovich	
AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL.....	59
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHİYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK.....	64
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY RIVOJLANISHI TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	69
Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
МЕТОДИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	73
Минутдинова Лилия Тагировна, Машарипов Озод Алимович	
ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО	78
Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI	84
Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o'g'li	
TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH.....	90
Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li	
O'ZBEKISTON SANOATINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TAYOTGANLIGI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR	96
Habibullayev Oybek Asliddin o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....	102
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI CHET EL INVESTITSIYALARINING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI	107
Raxmatov Adxam Itolmasovich, Boynazarova Matluba Xatamovna	



HUDUDIY IJTIMOY TENGLIK VA KAMBAG'ALLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURLARI OMILLARI.....	114
Durumov Temur G'olibovich	
TRANSPORT TARMOG'I VA MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY TARMOQLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI MODELLASHTIRISH (SURXANDARYO VILOYATI MISOLIDA)	121
Turayev Baxtiyor Ergashevich, Aymatov Sirojiddin To'raqul o'g'li	
РОЛЬ ЭНЕРГЕТИКИ В ФОРМИРОВАНИИ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Нигматуллаева Гулчехра Нуруллаевна	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI VA UNDA SIFAT MENEJMENTINING ROLI.....	139
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILARGA SOLIQ SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	145
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TURIZM INDUSTRIYASIDA INNOVATSION BIZNES-MODELLAR.....	151
Shaxinabonu Choriyeva	
AVTOTRANSPORT – EKSPEDITSIYA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING KONTSEPSIYASI	157
Ergasheva Mukhabbat Abdusamatovna	
“YASHIL” ENERGIYA ISHLAB CHIQUVCHI KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	163
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
DAVLAT IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING ROLI VA UNI KUCHAYTIRISH MEKANIZMLARI.....	166
O. Nurmuradov	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI	171
Meyliqulov Shaxboz Xolmamat o'g'li	
СВЯЗНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	176
Ташматов Гайрат Ровшанович, Содиков Авазбек Мадаминович	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI TURIZM SOHASINI RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	183
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYASI.....	187
Saidrahmatova Zuhraxon Saidazim qizi	
O'ZBEKISTON KONCHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISH VA INNOVATSION XAVFLARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI	192
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI.....	196
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA XOMASHYO TA'MINOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI.....	201
Zakirov Abduazim Abdurashidovich	
НОВЫЙ ЭТАП ПРИМЕНЕНИЯ РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	206
Махкамов Ибраим	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI.....	213
Kushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li	
GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOT NAZARIYASI.....	217
Mo'yidinov Xurshidbek Abdullayevich	
DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI	221
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	



BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA YERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH (XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI MISOLIDA)	227
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЕГО РОЛЬ В УПРАВЛЕНИИ РИСКАМИ В БИЗНЕСЕ.....	233
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURLARNI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA ULARNING MILLIY SOLIQ TIZIMIDA QO'LLASH MASALALARI	240
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI UCHUN QO'LLANILAYOTGAN SOLIQQA TORTISH MEXANIZMLARI	246
Akbarov Akramjon Ibragimzhonovich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA "YASHIL" MARKETINGNI JORIY ETISHNING DOLZARB JIHATLARI	250
Bazarova Fayyoz Tuxtamurodovna	
INSON KAPITALI VA IQTISODIYOTNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI.....	255
Muzaffar Raximov	
UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	259
Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li	
INTERNATIONAL ORGANIZATIONS' APPROACHES TO ATTRACTING INVESTMENT IN HUMAN CAPITAL	268
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	273
Vohobov Hikmatillo Ma'mirjon o'g'li	
ФОРСАЙТ И ЭКОНОМИЧНЫЕ ИННОВАЦИИ КАК ДРАЙВЕРЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТОРГОВЛИ САМАРКАНДА	280
Тохинова Гуллола Миркамолевна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI BOSHQARISHDA KASB-HUNAR TA'LIMI BITIRUVCHILARINING O'RNI	287
Toshpulatov Sherzod Xaydarkulovich	
DIGITAL TECHNOLOGIES IN ECOTOURISM: INNOVATIVE STRATEGIES FOR ADVANCING GREEN TOURISM	292
Barno Erkayeva	
AGROTURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	296
Baymuradova Iroda Shermamatovna, Mardonova Zarifa Numonjonovna	
DAVLAT BUDJET NAZORATI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	301
B.Sh.Mirzayev	
YOSHLAR BANDLIGIDA KO'NIKMALAR NOMUTANOSIBLIGI MUAMMOLARI VA YECHIMLARI.....	307
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI TAHLIL QILISH VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI BAHOLASH.....	311
Oqboyev Alisher Rasuljanovich	
РЕИНЖИНИРИНГ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ БАНКОВСКОГО БИЗНЕСА.....	317
Рахимходжаева Нодира Саидрахаловна	
QISHLOQ XO'JALIGI TA'MINOT ZANJIRI JARAYONLARINING HOZIRGI HOLATINI TAHLIL QILISH.....	323
Ermonov Farrux	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI SHAKILLANTIRISH JARAYONIDA MOLIVAVIY NAZORATNI INNOVATSION TA'LIM YO'NALISHLARINI YO'LGA QO'YISH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	329
Turg'unov Bahtiyor Nuriddinovich	



MARKAZIY OSIYODA SUV RESURSLARINI BOSHQARISH VA HAMKORLIKNING DOLZARB MASALALARI	334
Amanbaev Amanali Orazbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI TURDAGI LOGISTIKA XIZMATLARINING USLUBIY ASOSLARI.....	338
Z. Teshayev	
O'ZBEKISTON AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI SOHASINING AMALDAGI HOLATINI TAHLIL QILISH.....	343
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
KORPORATIV BOSHQARUVDA LEADERSHIP 4.0 TAMOYILLARINI JORIY ETISH SAMARADORLIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	349
Ismailov Allayor Rashidovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	355
Yusupov Farxod Adamboyevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISHNI USTUVOR YO'NALISHLARI	359
Abdullaeva Nilufar Javdat qizi	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING SOLISHTIRMA EKONOMETRIK MODELLARI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	363
Saatmurotov Shohrux Zafar o'g'li	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR	369
Abdurazaqov Jasur Abdunasimovich	
RAQAMLI PLATFORMALAR YORDAMIDA NORASMIY VA YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHNING QO'SHIMCHA IMKONIYATLARI TO'G'RSIDA.....	374
Nasrullayev Hikmatullo Habibulloyevich	
O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH MAQSADIDA "XIZMATLAR IPOTEKASI" MOLIYAVIY INSTRUMENTLARINI AMALIYOTGA JORIY QILISH MASALALARI	379
Uskenbayeva Dilnoza Boxodir qizi	
ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ КАПЕЛЬНОГО ОРОШЕНИЯ ПРИ ВОЗДЕЛЫВАНИИ ЛУКА В ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ.....	384
Суюнов Шохзодбек Мурод угли	
XORIJIY DAVLATLAR SANOAT IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TAJRIBASI (YAPONIYA, KOREYA VA GERMANIYA MISOLIDA)	389
Mansurova Sayyora Baxtiyor Kizi	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARI HISOBGA OLIISHDA XORIJ TAJRIBASINI QO'LLASH	395
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
PECULIARITIES OF THE IRRIGATION WATER DELIVERY PAYMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	399
Muminov Sherzod Kholmirzaevich	
DIGITALIZATION OF AGRICULTURAL PRODUCTS FOR EXPORT	404
Azimov R.B.	
AHOLI JON BOSHIGA UMUMIY DAROMADLAR HAJMINI TREND MODELLAR ASOSIDA PROGNOZLASH	409
Xolto'rayev Islom Ilhomovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI BANDLIK SHAKLLARI.....	416
Sayipov Begzod Rahimovich	
TIJORAT BANKLARINING YANGI DAVR SHAROITIDA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASH USULLARI VA INDIKATORLARI	422
Sadikov Iskandar Gayratovich	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	427
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	



MAHALLIY BUDJET SOLIQLI DAROMADLARI BAZASI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQLAR TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	433
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
TOSHKENT SHAHRIDAGI YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILARNING SOLIQ QARZDORLIGI TAHLILI	438
Soipov Boburmirzo Nosirjon o'g'li	
РОЛЬ ЖИЛИЩНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В СИСТЕМЕ КОМПЛЕКСНОГО РАЗВИТИЯ ТЕРРИТОРИЙ МЕЗОУРОВНЯ	446
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
TO'QIMACHILIK SANOAT KORXONALARIDA INSON RESURLARINI BOSHQARISHDA XORIJ TAJRIBALARINING ZARURLIGI	454
Abdullayev Dostonbek G'ofurjon o'g'li	
TURISTIK KLASSTERLARNING NAZARIY ASOSLARI VA ULARNING HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI	458
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RESURS TA'MINOTI BOSHQARUVINING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA MODELLARI	462
Arziqulova Oybar chin Eshquvat qizi	
XIZMATLAR SEKTORIDA RAQAMLI INNOVATSIYALAR VA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI QONDIRISH MEKANIZMLARI	467
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ В РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА	472
Базаров Бердымурад Улугмуродович, Атавуллаева Саида Джумабекмуродовна	
TURIZM SOHASIDA KADRLAR SALOHİYATINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMI	478
Ho'jaqulov Bobur Rustam o'g'li	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLATNING RO'LI	483
Nabiyeva Muxabbat Djabirxanovna	
"HOW GREEN INVESETMENTS CAN EFFECT ON ECONOMIC GROWTH IN DEVELOPING COUNTRIES"	485
Farangiz Ma'rufjonovna Pirmatova	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURLAR MANBALARI VA ULARNING HAJMINI OSHIRISHNING ZARURIYATI	493
Abduraxmonov Akmal Nurmat o'g'li	
GLOBAL BOSHQARUV VA BARQAROR RIVOJLANISHDA YASHIL TEXNOLOGIYALARNING ROLI	498
M.Sh. Tolipov	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	504
Буранбаева Шоира Рустамовна	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA PIYOZ YETISHTIRISHDA TOMCHILATIB SUG'ORISHNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	508
Suyunov Shohzodbek Murod o'g'li	
YENGIL SANOAT KORXONALARINING RIVOJLANISHIGA BOSHQARUV MADANIYATIDAN FOYDALANISHNING TA'SIRI	513
Aknazarova Zebiniso Bagdadovna	
ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYALASH SHAROITIDA KORPORATIV BOSHQARUVNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZM SAMARADORLIGINI ANIQLASH USULLARI	518
Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH VA JOYLASHTIRISHNING IQTISODIY VA TASHKILIY ASOSLARI	524
Salimov Burxon Abubakirovich	
"YASHIL" IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA UNDA ENERGIYADAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	530
Berdiyeva Aziza G'anisher qizi	



SIRKULAR IQTISODIYOTDAN KORXONA VA TADBIRKORLAR MANFAATLARI	535
Sodikov Zokir Rustamovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK SOHASIDA ME'YORIY-HUQUQIY BAZANI ISHLAB CHIQISH	541
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Ubaydullayev Toxirjon Abdullajanovich	
MINTAQA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI CHAKANA SAVDOSIDA SHADOW WAREHOUSE MODELIGA ASOSLANGAN YETKAZIB BERISH TIZIMINI JORIY QILISH	548
Ibrayimova Dilnoza Abdisherpovna	
XIZMATLAR SAVDOSI SOHASIDA O'ZBEKISTONNING XALQARO HAMKORLIK IMKONIYATLARI	555
Qodirjonov A.M.	
TO'QIMACHILIK SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH USLUBIYOTI	559
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
ГЛОБАЛЬНЫЕ ТРЕНДЫ СМАРТ-ТУРИЗМА И ИХ ПРИМЕНИМОСТЬ К КУЛЬТУРНОМУ НАСЛЕДИЮ УЗБЕКИСТАНА	564
Салихбаев Нурсултон Равшанович	
IJTIMOIIY HIMOYA TIZIMI VA IJTIMOIIY TIBBIY XIZMATLAR O'ZARO BOG'LIQLIGINING NAZARIY ASOSLARI	572
Shanazarov Farrux Shodiyorovich	
ТЕХНИКО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ОБОСНОВАНИЕ РАЗРАБОТКИ МОБИЛЬНОГО ПРИЛОЖЕНИЯ JOB VARAKA DLYA RYNKA TRUDA UZBEKISTANA	577
Еримбетова Улбосын Маратовна	
TASHQI SAVDO VA INVESTITSIYALAR TAHLILI HAMDA ULARNING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI	582
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
"O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA BIZNESLAR UCHUN SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MOLIVAVIY KO'RSATKICHLARNI TAHLIL QILISH VA RAQAMLI YECHIMLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH"	586
Azamatjon Mardayev Abdusamat o'g'li	
FARMATSEVTIKA MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI	591
Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna	
O'ZBEKISTONDA INNOVASION TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA KADRLAR TAYYORLASH MENEJMENTINING AMAL QILISH USULLARI VA TURLARI	596
Ergashev To'liqin Shokirovich	
HUDUDIIY IQTISODIYOTNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH	602
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
ISLOMIY MOLIYA INSTRUMENTLARINI JORIY ETISH ORQALI O'ZBEKISTONDA MOLIYA BOZORINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI	606
Xodjayev Aziz Shovkatovich	
MAHALLIY HOKIMIYAT QAROR QABUL QILISH JARAYONLARIDA DINAMIK OMILLAR VA ULARNING INTEGRATSIYASI	611
Axmedov Farxod Raxmonjonovich	



MAHALLIY HOKIMIYAT QAROR QABUL QILISH JARAYONLARIDA DINAMIK OMILLAR VA ULARNING INTEGRATSIYASI



Axmedov Farxod Raxmonjonovich

Namangan davlat texnika universiteti doktranti
g.mail: Grettacollin68@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada noaniqlik va xavf sharoitida mahalliy davlat hokimiyati organlarida boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni va unga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillar tizimli tahlil qilingan. Tadqiqotda Namangan viloyati hokimliklari misolida qaror qabul qilishga eng ko'p ta'sir ko'rsatuvchi omillar – ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, moliyaviy resurslar, rahbarlik sifati va axborot tizimlari ekani aniqlangan. Maqolada VUCA konsepsiyasi, rahbarlarning psixologik xususiyatlari, axborot va kommunikatsiya tizimlarining ahamiyati alohida tahlil etilgan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, qarorlar samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: boshqaruv qarori, noaniqlik, xavf, VUCA, rahbarlik, axborot tizimi, mahalliy hokimiyat.

Abstract. This article provides a systematic analysis of the decision-making process within local government bodies under conditions of uncertainty and risk. Based on a case study of Namangan region administrations, the research identifies key external and internal factors influencing decision quality, such as socio-economic conditions, financial resources, leadership style, and information systems. The study emphasizes the relevance of the VUCA framework and the role of cognitive and psychological traits of leaders, as well as the importance of timely and analytical information in governance. Practical recommendations are proposed to enhance the effectiveness of decision-making in local authorities.

Key words: decision-making, uncertainty, risk, VUCA, leadership, information systems, local governance.

Аннотация. В данной статье проведен системный анализ процесса принятия управленческих решений в органах местной государственной власти в условиях неопределённости и риска. На примере хокимиятов Наманганской области выявлены основные внешние и внутренние факторы, влияющие на эффективность решений, включая социально-экономическую ситуацию, финансовые ресурсы, качество лидерства и информационные системы. Особое внимание уделено концепции VUCA, психологическим характеристикам руководителей и роли информационно-коммуникационных потоков. На основе результатов исследования предложены практические рекомендации по повышению эффективности принятия решений в местном управлении.

Ключевые слова: управленческое решение, неопределённость, риск, VUCA, лидерство, информационные системы, местное управление.

KIRISH

Zamonaviy boshqaruv muhitining murakkablashuvi, iqtisodiy va siyosiy barqarorlikning o'zgaruvchanligi mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlar samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, viloyat, tuman va shahar hokimliklarida qarorlar qabul qilish, ularni iqtisodiy asoslash, baholash va prognozlash jarayonlari ko'plab omillarni, jumladan noaniqlik va xavf holatlarini chuqur tahlil qilishni talab etmoqda. Bunday murakkab muhitda samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish uchun eng asosiy omillardan biri bu – axborotni yig'ish, tahlil qilish va to'g'ri baholashdir.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Yo'limiz shu paytgacha oson bo'lgani yo'q, bundan keyin ham oson bo'lmaydi. Lekin biz dadil oldinga borishdan, kerak bo'lsa, kutilmagan, ammo pirovard natijasi samarali va xalqimiz manfaatlariga javob beradigan noan'anaviy qarorlar qabul qilishdan cho'chimasligimiz zarur"[1] degan so'zlari sohada keng qamrovli ilmiy va amaliy tadbirlarni amalga oshirishga undaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.

Zamonaviy boshqaruv nazariyasi va amaliyotida qaror qabul qilish jarayoni o'ziga xos kompleks, ko'p omilli tizim sifatida qaraladi. Xususan, mahalliy davlat hokimiyati organlarida – viloyat, tuman va shahar hokimliklarida qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarining sifat va samaradorligi bir qator muhim omillar – tashqi muhitdagi o'zgarishlar, ichki boshqaruv resurslari, axborot tahlili tizimlari, institutsional hamkorlik darajasi, shuningdek rahbarlarning psixologik va kognitiv xususiyatlariga bevosita bog'liqdir.

Boshqaruv muhitining beqaror va murakkab tus olgan hozirgi sharoitida VUCA (Volatility, Uncertainty, Complexity, Ambiguity) konsepsiyasi keng qo'llanilmoqda. Mazkur konsepsiya doirasida, o'zgaruvchanlik, noaniqlik, murakkablik va ikki ma'nolilik kabi omillar qaror qabul qilishga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi. Mazkur yondashuv global tahdidlar, iqtisodiy silkinishlar va texnologik transformatsiyalar fonida qaror qabul qilishni faqat an'anaviy raqamli tahlil emas, balki strategik fikrlash, moslashuvchanlik va yuqori darajadagi intuitiv yondashuv talab qiluvchi jarayon sifatida talqin etadi [1].

Bu boradagi ilg'or tadqiqotlardan biri sifatida Florin Oprea (2010) tomonidan olib borilgan ilmiy ishlar alohida e'tiborga molikdir. Muallif o'z izlanishlarida mahalliy davlat boshqaruviga ta'sir etuvchi omillarni oltita asosiy toifaga – iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy, siyosiy, inson omili hamda atrof-muhit omillariga ajratadi. Shu bilan birga, u investitsiyaviy qarorlarni qabul qilishdagi zaifliklar sababi sifatida institutsional nomuvofiqlik, siyosiy bosim, korrupsiya, byudjet cheklovlari, moliyaviy ma'lumotlar yetishmasligi va uzoq muddatli moliyaviy prognozlarning sustligi kabi holatlarni ko'rsatadi [2]. Ushbu yondashuv O'zbekistonda amalga oshirilayotgan mahalliy boshqaruv islohotlari uchun ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shuningdek, xalqaro adabiyotlarda qaror qabul qilish jarayoni ko'pincha subyektiv va obyektiv omillarning o'zaro ta'sirida shakllanishi ta'kidlanadi. Psixologik yondashuvga ko'ra, subyektiv omillar – ya'ni rahbar shaxsining kognitiv qobiliyatlari, tajribasi, stressga bardoshliligi, sezgi va idrok jarayonlari – murakkab va noaniq sharoitda to'g'ri qaror qabul qilish imkoniyatini belgilovchi muhim elementlardir. Bu haqda qaror psixologiyasi bo'yicha yetakchi mutaxassislar G.Gigerenzer va D.Kahneman tadqiqotlarida keng yoritilgan. Gigerenzer intuitiv qarorlar samaradorligini targ'ib qilsa, Kahneman, aksincha, inson qarorlaridagi kognitiv xatoliklar og'ishlarga e'tibor qaratadi [3, 4].

Zamonaviy boshqaruv tizimlari tobora beqaror va murakkablashib borayotgan global muhitda faoliyat yuritmoqda. Ayniqsa, VUCA konsepsiyasi (V – o'zgaruvchanlik, U – noaniqlik, C – murakkablik, A – ikki ma'nolilik) asosida qaror qabul qilishga bo'lgan yondashuv hozirgi sharoitda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yondashuv doirasida odatdagi sharoitdan keskin farq qiluvchi, oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan, ekstremal holatlar tashkilotlarning strategik qarorlariga sezilarli ta'sir o'tkazadi[5].

Bunday vaziyatlarda viloyat, tuman, shahar hokimliklarida boshqaruv qarorlarini qabul qilish va baholash, prognozlash, iqtisodiy asoslash, qaror qabul qilishda mavjud noaniqliklarning hisobga olinganligi qaror samaradorligiga ta'sir etuvchi barcha omillarni hisobga olish bilan bog'liq[6]. Shu bilan birga Samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun eng muhim omillardan biri bu axborotni yig'ish va tahlil qilish. Bugungi kungacha rahbarlar noaniq sharoitlarda ham boshqaruv qarorlarini qabul qilishgan, noaniq sharoitning sababi esa keskin ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarishlar, raqobatbardosh kurash va axborot hajmining ortishi bilan bog'liq[7].

"Alexandru Ioan Cuza" nomidagi Rumiya universiteti professori Florin Oprea[8] tomonidan sohaga ta'sir etuvchi omillarni qadqiq etib, ularni: iqtisodiy; moliyaviy; ijtimoiy; siyosiy; inson hamda atrof muhit omillariga ajratdi. Bundan tashqari mahalliy davlat hokimiyatini investitsiyaviy qarorlarini qabul qilishni zaiflashtiruvchi omillarga: institutsiyalararo muvofiqlashtirishning yetishmasligi; siyosiy ta'sir; zaif byudjet tizimida ko'p yillik mablag' taqsimoti muammosi; korrupsiya; ma'lumotning etishmasligi; byudjet cheklovlari kabi omillarni kiritdi.

Hozirgi kunda boshqaruv qarorlari qabul qilishda noaniqlik va xavf sharoitida ta'sir etuvchi omillar tashqi va ichki omillarga bo'linishi mumkin[9].

-bozor konyunkturasi - bu narxlarning o'zgaruvchanligi, talab va taklifdagi o'zgarishlar, raqobat va yangi bozorlarga kirish kabi omillarni o'z ichiga oladi. Bozor tebranishlari sharoitida qabul qilinadigan qarorlar chuqur bozor tahlili va potentsial tendentsiyalarni hisobga olishga asoslanishi lozim;

-siyosiy holat - mamlakat yoki mintaqadagi siyosiy notinchlik qonunchilik, soliqqa tortish siyosati va biznesga qo'yiladigan talablar o'zgarishi kabi xavf-xatarlarni keltirib chiqarishi mumkin;

1 Мирзиёев, Шавкат Миромонович Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси асосида демократик ислохотлар йўлини қатъий давом эттирамиз. 6-жилд [Матн]/Ш.Мирзиёев.- Тошкент: «O'zbekiston» нашриёти, 2023.-536 б.



-iqtisodiy sharoitlar - inflyatsiya, % stavkalari, valyuta kurslari va iqtisodiy o'sish kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar biznes operatsiyalariga va loyihalarning rentabelligiga katta ta'sir ko'rsatadi;

-texnologik o'zgarishlar - innovatsiyalar yangi imkoniyatlar yaratishi mumkin, lekin shu bilan birga mavjud biznes-modellar uchun xavf tug'dirishi mumkin. Rahbarlar qaror qabul qilishda innovatsion texnologiyalarning potentsialini va hozirgi biznes jarayonlarining eskirish xavfini hisobga olishlari lozim;

-ijtimoiy o'zgarishlar - jamiyatlardagi kayfiyatlarning o'zgarishi, demografik siljishlar va madaniy tendentsiyalar iste'molchilarning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi, bu esa mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqishda inobatga olinishi kerak;

-korporativ madaniyat - kompaniyaning xarakteri va qadriyatlari xodimlarning bir-biri bilan qanday o'zaro aloqada bo'lishini va qarorlar qabul qilishni belgilaydi. Innovatsiyalar va xavfni o'zida mujassamlashtirgan kuchli madaniyat kompaniyaga o'zgarishlarga moslashishda yordam beradi;

-resurslar - moliyaviy, insoniy va moddiy resurslarning mavjudligi;

-jamoaning talantlari va ko'nikmalari - rahbarlarning va jamoaning malakasi, tajribasi va intuitsiyasi qaror qabul qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Murakkab ma'lumotlarni tahlil qilish va yashirin xavflarni aniqlash qobiliyati muvaffaqiyatning kalitidir. Qanday boshqaruv va nazorat tizimlari ishlatilishi qaror qabul qilish jarayonining tezligi va samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi;

-axborotga kirish imkoniyati - noaniqlik sharoitida ongli qarorlar qabul qilish uchun vaqtida va to'liq axborotga kirish zarur. Axborot to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish tizimlari noaniqlik darajasini kamaytirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Boshqaruv qarorlarini noaniqlik va xavf sharoitida qabul qilishga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, tashkilotning muvaffaqiyati va barqarorligi katta darajada rahbariyatning ushbu omillarni to'g'ri baholash va boshqarish qobiliyatiga bog'liq[10].

Psixologiyada qaror qabul qilish omillari eng chuqur o'rganilgan sohalaridan biri boshqaruv qarorlari misolida amalga oshirilgan. Odatda, omillar ikki katta guruhga ajratiladi – shaxsiy (subyektiv) va vaziyatga oid (obyektiv, ya'ni atrof-muhit ta'sirini inobatga olishni talab etadi.[11].

Qaror qabul qilish jarayonida kognitiv jarayonlar muhim ahamiyatga ega. Alternativalar orasidan tanlov qilish holatida quyidagi jarayonlar ishtirok etadi: sezgi, idrok, xotira, fikrlash, tasavvur va e'tibor. Ular yordamida inson axborotni oladi, tahlil qiladi, oldingi tajribalar bilan taqqoslaydi, oldindan taxmin qiladi va hokazo. Aynan shu psixik jarayonlarning qanday amalga oshishi qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga psixologik omillardan biri motivatsion omillardir. Qaror qabul qilish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lgan motivatsiya turlari quyidagicha ajratiladi: fikrlash vazifalari bilan bog'liq bo'lgan tanqidiy motivatsiya; xavf sharoitida qaror qabul qilishda esa – shaxsiy xavfga tayyorlik[12].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mahalliy boshqaruv tizimlarida qaror qabul qilish jarayoni ko'p omilli, murakkab va ko'plab tashqi va ichki omillar ta'sirida shakllanadi. Bu jarayonni chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish mahalliy hokimiyat organlarining samarali faoliyat yuritishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda mahalliy davlat hokimiyati organlarida boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ijrosini ta'minlashda noaniqlik va xavf sharoitida qaror qabul qilishga ta'sir etuvchi omillar tizimli tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy bosqichlardan o'z ichiga oladi:

Birinchi bosqich sifatida tadqiqot obyekti Namangan viloyatining shahar va tuman hokimliklari tanlandi. Tadqiqot predmeti esa – mazkur hokimiyat organlarida qaror qabul qilish jarayoni va unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar tizimi, xususan, VUCA sharoitida boshqaruv strategiyalarining samaradorligi etib belgilab olindi.

Ikkinchi bosqich, tadqiqotda miqdoriy (kvantitativ) va sifatli (kvalitativ) tadqiqot uslublari uyg'un holda qo'llandi. Asosiy uslublar quyidagilardan o'z ichiga oladi:

-so'rovnoma (anketlash) usuli – rahbar kadrlar orasida o'tkazilgan savolnomalar orqali amaliy fikrlar va ustuvorliklar aniqlangan.

-tahliliy-ekspert baholash usuli – olingan javoblar asosida qaror qabul qilishga ta'sir etuvchi omillar baholandi.

-adabiyotlar tahlili – xalqaro va mahalliy manbalar asosida qaror qabul qilish jarayoniga oid nazariy yondashuvlar o'rganildi (Gigerenzer, Kahneman, Oprea, Xolov va boshqalar).


-statistik ma'lumotlarni qayta ishlendi va guruhlandi

-243 nafar respondent tanlanmasi Namangan viloyati sharoitida mahalliy boshqaruv tizimining vakillari sifatida yetarli vakillikka ega deb hisoblanadi va respondentlar tanlovi viloyatdagi barcha tuman va shahar hokimliklarini qamrab olgan holda, tasodifiy va ixtiyoriy ishtirok asosida amalga oshirildi. Bu esa natijalarni umumlashtirish va muhim xulosalar chiqarish imkonini yaratdi.



TAHLIL VA NATIJALAR

“Qaysi tashqi omillar mahalliy davlat hokimiyati organlari qaror qabul qilishiga ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi?” degan savolga javoban respondentlarning 25,5% qismi “ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat”ni birinchi o‘ringa qo‘ygan. Bu natija viloyatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy barqarorlik holatining boshqaruv qarorlariga bevosita ta’sir ko‘rsatayotganini anglatadi. Xususan, ishsizlik, aholi daromadlari, infratuzilma rivoji kabi ko‘rsatkichlar hokimiyat organlarining strategik qarorlar qabul qilishida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda (1-rasm).




1-rasm. Mahalliy davlat hokimiyati organlari qaror qabul qilishiga ta’sir etuvchi tashqi omillar

Shuningdek, 25,0% respondent “moliyaviy resurslar”ni muhim tashqi omil sifatida ko‘rsatgan bo‘lsa, 11,4% respondentlar “fuqarolar fikri” va “texnologik infratuzilma”ni tanlagan. Ushbu ko‘rsatkichlar hukumatning ochiqligi, zamonaviy texnologiyalarga moslashuv darajasi va moliyaviy mustaqillik masalalari hokimiyat organlarida strategik rejalashtirish jarayonida qanday o‘rin tutishini ochib beradi.

Ahamiyatli jihatlardan yana biri, faqat 4,5% respondentlar “siyosiy muhit”ni muhim tashqi omil deb belgilagan. Bu holat, bir tomondan, mahalliy hokimiyat organlarining siyosiy ta’sirdan nisbatan mustaqil qaror qabul qilayotganligini anglatishi mumkin bo‘lsa, boshqa tomondan, siyosiy barqarorlikning mavjudligi sababli bu omil past baholangan bo‘lishi ehtimoldan holi emas.

Ichki omillar nuqtai nazaridan esa, “Boshqaruv qarorlari qabul qilishga qanday ichki omillar ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi?” degan savolga 30,9% respondentlar “rahbarlik sifati va boshqaruv uslubi”ni eng muhim omil sifatida belgilagan. Bu natija, boshqaruv samaradorligi, tashkilot ichidagi iqlim va strategik yo‘nalishlar rahbar shaxsining qaror qabul qilish uslubi, tajribasi, intuitsiyasi va liderlik fazilatlarini bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi (2-rasm).



2-rasm. Boshqaruv qarorlari qabul qilishga ichki omillarning ta’siri



Shuningdek, 21,0% respondent “axborot oqimi va kommunikatsiya tizimi”ni tanlagan. Bu esa qaror qabul qilishda o‘z vaqtida, ishonchli va tahliliy axborotning mavjudligi rahbarlar faoliyati uchun hal qiluvchi omil ekanligidan dalolat beradi. Axborotga kirish, uni tahlil qilish va aniq prognozlar asosida qaror chiqarish zamonaviy boshqaruvning ajralmas qismiga aylangan.

Qolgan respondentlarning javoblari quyidagicha taqsimlandi:

19,3% – “kadrlar soni”;

11,0% – “kadrlar malakasi va professional salohiyat”;

10,7% – “vakolatlar taqsimoti va bo‘linmalar o‘rtasidagi hamkorlik”;

6,2% – “ichki madaniyat va jamoaviy ruh”.

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, hokimiyat organlarida jamoaviy madaniyat, hamkorlik va tashkilot ichki muhitiga hali yetarli darajada e‘tibor berilmayapti. Biroq, ilg‘or boshqaruv nazariyalariga ko‘ra, tashkilotdagi jamoaviylik hissi, ochiq kommunikatsiya va xodimlar o‘rtasidagi ishonch darajasi qarorlarni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqot natijalari mahalliy boshqaruv tizimlarida qaror qabul qilishga ta‘sir etuvchi omillar tizimli va ko‘p qirrali ekanligini ko‘rsatmoqda. Tashqi omillar ichida ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va moliyaviy resurslar yetakchi o‘rin egallagan bo‘lsa, ichki omillar orasida rahbarlik sifati va boshqaruv uslubi birinchi darajali omil sifatida ko‘rilmoqda. Bu holat Florin Oprea, G. Gigerenzer va D. Kahneman kabi tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan nazariyalarni amalda tasdiqlaydi, ya‘ni qarorlar insoniy, iqtisodiy va institutsional omillarning murakkab o‘zaro ta‘siri asosida shakllanadi.

Mazkur holatda, mahalliy boshqaruv tizimlarining samaradorligini oshirish uchun quyidagi yondashuvlar muhim ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin:

-axborot tizimlarini takomillashtirish va real vaqt rejimidagi monitoring mexanizmlarini joriy etish;

-rahbarlar uchun VUCA muhitida qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan treninglar tashkil etish;

-ichki madaniyat va jamoaviylikni rag‘batlantirishga alohida e‘tibor qaratish.

Shu tariqa, noaniqlik va xavf sharoitida boshqaruv qarorlarini qabul qilish faqat texnik va tizimiy yondashuvlar emas, balki liderlik, kommunikatsiya va inson omillarini chuqur tahlil qilishga asoslangan murakkab boshqaruv faoliyati ekanligi isbotlanmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, noaniqlik va xavf sharoitida mahalliy davlat hokimiyati organlarida boshqaruv qarorlarini qabul qilish ko‘p omilli va murakkab jarayon bo‘lib, unga ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, texnologik, axborotiy va insoniy omillar kompleks tarzda ta‘sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, rahbarlarning boshqaruv uslubi, mavjud axborot tizimlari va tashqi iqtisodiy sharoitlar qarorlarning sifatiga bevosita ta‘sir qilmoqda. Mahalliy davlat hokimiyati qaror qabul qilish samaradorligini oshirishda rahbarlik sifati, ishonchli axborot ta‘minoti, moliyaviy mustaqillik va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik eng muhim omillar hisoblanadi.

Yuqoridagilarni inobatga olib sohani yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarini beramiz:

-axborot tahlili va monitoring tizimini raqamlashtirish va kuchaytirish ya‘ni mahalliy hokimliklar qaror qabul qilishda real vaqtda ma‘lumotlarga asoslangan tahlil tizimlaridan (Business Intelligence, Data Analytics) keng foydalanishlari maqsadga muvofiq. Bu orqali noaniqlik darajasi kamayadi va qarorlar aniqlik bilan qabul qilinadi.

-VUCA sharoitida qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi treninglar tashkil etish, bunda boshqaruv kadrlariga stressga chidamlilik, strategik fikrlash, intuitiv qarorlar qabul qilish va moslashuvchanlik kabi kompetensiyalarni shakllantirish uchun maxsus o‘quv kurslari joriy etilishi zarur. Bu, liderlik salohiyatini oshirib, qarorlarning ishonchligini ta‘minlash imkoniyatlarini oshiradi.

-ichki madaniyat va jamoaviylikni kuchaytirish bo‘yicha tashabbuslarni yanada faollashtirish orqali tashkilotda ishonchli muhit, o‘zaro hurmat, ochiq muloqot, birgalikda mas‘uliyat olish madaniyatini shakllantirish orqali jamoaning ishtiroki ortadi. Bu esa, ijro intizomi va qarorlarning amaliy samaradorligini kuchaytiradi.

-fuqarolar bilan muloqot va fikr almashinuvi platformalaridan foydalanishini motivatsiya qilish natijasida mahalliy darajada ochiq elektron platformalar, ijtimoiy tarmoqlar orqali qarorlar qabul qilinishidan oldin fuqarolar fikrini o‘rganish, bu fikrlarni tahlil qilish va hisobga olish mexanizmini yo‘lga qo‘yish kerak. Bu qarorlarning ijtimoiy asoslanganligini oshirish imkoniyatlarini oshiradi.

-moliyaviy va kadrlar resurslarini strategik rejalashtirishni yanada kuchaytirish, ya‘ni tashkilot ichidagi byudjet taqsimoti, kadrlar siyosati va infratuzilma rivojlanishini uzoq muddatli prognozlar asosida olib borish zarur. Bu o‘zgaruvchan tashqi muhitga mos ravishda barqaror qaror qabul qilishga imkon yaratadi.

**Foydalanilgan Adabiyotlar ro'yxati**

1. Мирзиёев, Шавкат Миромонович Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси асосида демократик ислохотлар йўлини қатъий давом эттирамиз. 6-жилд [Матн]/Ш.Мирзиёев.- Тошкент: «O'zbekiston» нашриёти, 2023.-536 б.
2. Bennett, N., & Lemoine, G. J. (2014). What VUCA really means for you. Harvard Business Review, 92(1/2), 27–42. <https://hbr.org/2014/01/what-vuca-really-means-for-you>
3. Gigerenzer, G. (2007). Gut feelings: The intelligence of the unconscious. Viking.
4. Kahneman, D. (2011). Thinking, fast and slow. Farrar, Straus and Giroux.
5. Шипкова, О.Т., Е.Н.Акимова, and О.В.Шатаева. «Инструменты планирования и принятия решений в условиях глубокой неопределённости как основа проактивной позиции экономического субъекта. «Вестник государственного университета просвещения. Серия: Экономика 2 (2022): 127-141.
6. Холов, Актам Маҳаллий давлат ҳокимияти органларида бошқарув қарорлари қабул қилиш механизми. / Монография. / Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси. / Тошкент. / "Tafakkur qanoti", 2019 й. 224 б.
7. К.Б.Ахмеджанов, А.Х. Холов. Ёш раҳбар кадрларда самарали қарор қабул қилиш кўникмасини шакллантириш. / Ўқув қўлланма / Ўзбекистон Респбликаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси қошидаги Ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти - Т.: 'Tafakkur qanoti", 2020. 96 б.
8. Habil Florin Oprea Factors influencing local governments' investment decision oprea<https://doctorat.feaa.uaic.ro/document/factors%20influencing%20local%20governments%e2%80%99%20investment%20decision.pdf>
9. Гаибова, Т.В. Поддержка принятия решений в условиях неопределенности при реализации мультипроектов глубокой переработки природных ресурсов / Т.В. Гаибова, А.С. Григорьева // Молодой ученый. – 2018. – № 23 (209). – С. 171-174.
10. Р.М. Балдашев В.К. Романович Факторы, влияющие на принятие управленческих решений в условиях неопределённости и риска Economy and Business: Theory and Practice, vol. 3-1 (109), 202 DOI:10.24412/2411-0450-2024-3-1-46-49
11. Кулагин О. А. Принятие решений в организациях: Учеб. пособие. - СПб.: Изд. дом «Сентябрь», 2001. – 148 с.
12. Корнилова Т.В. Психология риска и принятия решений: Учебное пособие для вузов/Т.В.Корнилова. – М.: Аспект-Пресс, 2003. – 286 с.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
